

ONA TILI DARSLARIDA YANGI MAVZUNI O'RGATISH VA MUSTAHKAMLASHDA INTERFAOL METODLAR

Qo'chqorova Feruza Muxtarovna

Toshkent shahar Mirobod tumani 110- sonli IDUMning O'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogic metodlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy metodlar, an'anaviy usullar, savodxonlik, pedagogic texnologiyalar, ona tili.

Ona tili — har bir elatning, xalqning, millatning o'z tili. Ona tili lug'at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an'analarini ifodalaydigan so'z va tushunchalardan iborat bo'ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq.

Ona tili o'quvchini mustaqil fikrleshiga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga

quriladi. Ma'lumki, har bir milliy til o'zida moddiy olamni aynan, adyekvat aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg'u-alamlari-yu shodliklarini ham o'rinda tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi. Tilning o'ziga xos nafosatini o'quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta'limida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Keyingi yillarda breynrayting, breystorming, aqliy hujum, bumerang, blits-so'rov, klaster, keys-stadi, germenektiv suhbat kabi turli tuman metodlar paydo bo'ldi. Bu metodlar o'quvchilarda bilim va ko`nikmani chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslari ta'lim jarayonining eng ko'p qismini tashkil etadi. Bu dars tipining asosiy vazifasi tilning fonetik, leksik, so'z yasash, grammatik tomonlariga oid qonuniyatlarini, orfoepiya, orfografiya, punktuatsiya, uslubiyatga doir qoidalarni o'quvchilarga o'rgatish va ularni datslabki mustahkamlashdir. Yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida quyidagi vazifalar yechiladi:

-o'rgatilayotgan grammatik bilimlarning asosiy maqsadini anglash, shu bilimlarning nutq faoliyatidagi rolini fahmlash;



- mavzuga oid bilimlarning umumiylarini qurilishini idrok etish;
- o'rganilgan bilimni qayta xotirlash yo'lini, uni amaliyotda qo'llash usulini egallash.

Yangi bilimlarni o'rgatishda deduksiya va induksiya usulidan foydalaniadi. Hozirgi dastur va darsliklarda yangi bilimni asosan induksiya usuli bilan o'rgatish ko'zda tutilgan. Ma'lumki, deduksiya usulida umumiylardan xususiylikka qarab boriladi. Induksiya usulida esa xususiylikdan umumiylikka qarab boriladi.

Masalan: 8-sinfda ega va uning ifodalanimini tushuntirish uchun quyidagi gaplar tahlil qilinadi:

Daraxtlar choyxona sahnidagi gulzorga o'xshar edi. Biz quvchonchli kunlarga yetib keldik. O'n – beshdan katta. O'qimoq – o'rganmoq. To'g'ri o'zadi, egri to'zadi. Bu gaplar tahlil qilinib, har bir gapning egasi topiladi, ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalangani aytiladi, so'roqlari aniqlanadi. Shu orqali eganining umumiylarini ta'rif keltirib chiqariladi.

Yangi materialni tushuntirishda o'quvchilarning oldin o'rgangan bilimlari, malakalariga tayanish o'quv materialini puxta o'zlashtirishga zamin hozirlaydi. O'rgatilayotgan mavzuga aloqador bilimlarni takrorlash yangi bilimlarni ongli idrok etishning asosiy omili hisoblanadi.

Yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslari o'z ichida ikki turga bo'linadi:
1.O'tilganlar takrorlangach, yangi o'quv materialini o'rgatish boshlanadigan dars. Darsning bu turida o'rgatiladigan grammatik orfografik qoida, ta'riflarning mazmunidan kelib chiqib, mustaqil ish o'tkaziladi, topshiriqning natijasi jamoada tekshiriladi, tahlil qilinadi va unga tayanib o'quv materiali bayon qilinadi.

2.Yangi o'quv materialini o'rgatishdan boshlanadigan dars. Bu dars o'quvchilarning mustaqil faoliyatidan boshlanadi. O'quvchilar bajargan topshiriq va qoidalar ustida suhbat o'tkaziladi. O'quvchi o'quvchilarning xulosalariga, zarur bo'lsa, o'zgarishlar kiritadi va yakuniy xulosa chiqaradi. Keyin mustahkamlashga o'tiladi.

O'tilganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari. Ona tilidan o'rgatilgan bilimlarning puxtaligi, ko'p jihatdan, o'qituvchining takrorlash darslarini tashkil qilishiga bog'liq. Bunday darslarda o'quvchi oldin o'rgatilgan nazariy bilimlarga, grammatik-orfografik qoidalarga takroriy qaytadi. Mashq paytida o'quvchi o'zi o'rgangan qoida asosida faoliyat ko'rsatadi. Takrorlash darslarida oldin idrok etilgan bilimlar qayta tasavvur etiladi. Takrorlash darslari, bir tomonidan, turli mashqlar yordamida o'quvchilarda o'rgatilgan materiallar doirasida malaka hosil qilishiga qaratilsa, ikkinchi tomonidan, o'quvchilarning bilimlarini aniqlashtirish, kengaytirishga xizmat qiladi.

Tajribadanma'lumki, o'quvchilarning aksariyati ona tili darslarida imlo qoidalarini puxta o'zlashtirmaydilar. So'larni qanday aytilsa, shunday yozishga odatlanib qoladilar.

Shuningdek, o'quvchilarning nutqidagi dialektal xatoliklar ularning savodxonligiga soya solidi. Bu esa bora-bora ulardagagi savodxonlik darajasining qotib qolishiga,



so'zlarning muntazam ravishda xato yozilishiga sabab bo'ladi. Masalan, o'quvchilarning

og'zaki nutqida baho, bahor, bilan, yulduz, teatr, savol, orden, obod, marvarid, shanba, mas 'ul, daryo kabi so'zlarni boho, bohor, blan, yuldiz, tiatr, sovol, ordin, obot, marvarit, shamba, ma 'sul, dayra tarzida talaffuz qilish va shu asosda xato yozish amaliyotda uchraydi. Bu narsa ularning unli va undosh harflar imlosi bo'yicha ona tili darslarida yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lganliklarini ko'rsatadi. Bu kabi xatoliklarning oldini olish maqsadida "O'zbek tilining imlo qoidalari" dagi "Ayrim unlilar va undoshlar imlosi" yuzasidan tegishli nazariy ma'lumotlar mavzular o'tilgach, quyidagicha topshiriq beriladi:

So 'zlarni o 'qing, xato yozilgan o 'rnlarni topib, o 'zbek tilning imlo qoidalariga mos ravishda ularni to 'g'riling va daftaringizga ko 'chiribyozing.

Bugalter, hayol, xayo,xolol, momila, xuqiq, rektir, kanferensiya, kampyuter, maylis va hokazo.

To'g'ri yozilishi: buxgalter, xayol, hayo, halol, muomala, halol, huquq, rektor, konferensiya, kompyuter, majlis.

Kakografik yo'nalishdagi bunday topshiriqlarni bajarish bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin:

O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi;

O'quvchilar ona tilidan olingan bilim va malakalarini xotirlashga, esga olishga harakat qiladi;

Materialarni bir-biriga solishtiradi, taqqoslaydi;

Xulosalar chiqaradi, orfografik bilimlarni mustahkamlaydi.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida ona tili fanlarini o'zlashtirishda o'quvchilarning yozma nutq malakalarini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalar,boy tajribalar va qiziqarli o'yinlar orqali mashg'ulotlarni tashkil qilish orqali kutilgan natijalarni olish mumkin.

O'quvchilarning o'z fikrini yozma bayon qilishida ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi.

Bunda:

- fikrning mantiqiy izchiklikda ifodalanganligini aniqlash;
- tasvirining mavzuning muvofiqligini va tavsifning qiymatini aniqlash;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash;
- imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash asosiy omillar hisoblanadi, Demak, yozma nutq malakasini hosil qilish ona tili ta'limining asosiy



maqsadlaridan biri hisoblanadi. Zero, maktab ona tili ta'limining bosh maqsadiga ko'ra dars mashg'ulotlari o'quvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini

chuqurlashtirish, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda, to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakilantirishga va rivojlantirishga qaratilmog'i kerak. Bu muhim vazifani amalga oshirishda ona tili ta'limi jarayonida tashkil etiladigan turli usullar orqali yozma malakalarini oshirishga xizmat qiladigan pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos o'rni bor

Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili va adabiyot darslarida qo'llash

natijasida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, o'zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofidagilarning fikrlarini hurmat qilishga, o'zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rafiyev A. , G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , "Sharq", 2013.
2. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami. T. "Navro'z", 2018.
3. Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalahtirish. T. , "Iqtisodiyot", 2012.
4. "Umumta'lim fanlari metodikasi" jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018.
5. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1-12 sonlar, 2018

